

XIVA ICHAN QAL'ADAGI ATA DARVOZASINI QURULISH TARIXI

Kamilova Shoxsanam Dilmurod qizi

Ma'mun universiteti NTM Ingliz tili yo'nalishi birinchi kurs magistr Telefon: +998919941721 E-mail: shoxsanam.kamilova@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xiva shahri Ichan qal'a muzey qo'rixonasi hududida Ata darvoza obidasidagi epigrafiy yozuv ilmiy manba sifatida o'rganiladi. Tadqiqotni maqsadi shundaki epigrafiy bitiklarni tarixiy kontekstini yoritish, asl matini va suratini taqdim etishdir. Maqolada Ata Darvozaning qurilish tarixi va me'moriy ahamiyati qisqacha tavsiflanib, undagi epigrafiy yozuvning joylashuvi, materiali va yozuv xususiyatlari tahlil qilinadi. Epigrafiy matnning asl shakli saqlangan holda berilib, uning o'zbek tilidagi mazmuniy tarjimai hamda ingliz tilidagi akademik tarjimai keltiriladi. Shuningdek, bitikda uchraydigan tarixiy shaxslar, unvonlar va sana bilan bog'liq ma'lumotlarga qisqa izohlar beriladi. Tadqiqot natijalari Xiva epigrafiyasini o'rganishda yangi manbaviy material sifatida ahamiyat kasb etib, Markaziy Osiyo me'moriy yodgorliklaridagi epigrafiy yozuvlarni tarixiy manba sifatida tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.*

Kalit so'zlar: *Xiva, Ichan qal'a, Ata Darvoza, epigrafiy yozuv, tarixiy manba, ikki tili tarjima.*

Аннотация: *В данной статье в качестве научного источника изучается эпиграфическая надпись на монументе Ата-ворот в музее-заповеднике Ичан-Кала города Хивы. Цель исследования – пролить свет на исторический контекст эпиграфических надписей, представить их оригинальный текст и изображения. В статье кратко описывается история строительства и архитектурное значение Ата-ворот, анализируются местоположение, материал и особенности письма эпиграфической надписи на них. Приводится оригинальная форма эпиграфического текста, его содержательный перевод на узбекский язык и академический перевод на английский. Также приводятся краткие комментарии к информации об исторических личностях, титулах и датах, найденной в надписи. Результаты исследования будут важны как новый источник информации в изучении хивской эпиграфики и расширят возможности изучения эпиграфических надписей на архитектурных памятниках Центральной Азии как исторического источника.*

Ключевые слова: *Хива, Ичан-Кала, Ата-ворота, эпиграфическая надпись, исторический источник, двуязычный перевод.*

Abstract: *This article examines the epigraphic inscription on the Ota Gate monument in the Itchan-Kala Museum-Reserve in Khiva as a scientific source. The aim of the study is to shed light on the historical context of epigraphic inscriptions and present their original text and images. The article briefly describes the history of the construction and architectural significance of the Ota Gate, analyzes the location, material, and writing of the epigraphic inscription. The article presents the original form of the epigraphic text, its translation into Uzbek, and an academic translation into English. A brief review of the information about*

historical figures, titles, and dates found in The inscription is also provided. The results of the study will be valuable as a new source of information in the study of Khiva epigraphy and expand the possibilities of studying epigraphic inscriptions in Central Asian architectural monuments as a historical source.

Keywords: *Khiva, Itchan-Kala, Ota Gate, epigraphic inscription, historical source, bilingual translation.*

KIRISH

Hozirgi kunga kelib epigrafik yozuvlar me'moriy obidalar bilan bog'liq holda o'rganiladigan muhim birlamchi manbalar qatoriga kiradi. Bunday yozuvlar orqali muayyan davrning siyosiy, diniy va madaniy qarashlari, shuningdek, hukmdorlar faoliyati va qurilish jarayonlari haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududidagi tarixiy shaharlar epigrafik yodgorliklarga boy bo'lib, ularni ilmiy jihatdan hujjatlashtirish va tadqiq etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xiva shahri va uning tarixiy markazi bo'lgan Ichan qal'a majmuasi me'moriy obidalari va epigrafik yozuvlari bilan alohida ajralib turadi. Ichan qal'a hududida joylashgan masjid, madrasa, saroy va darvozalarda bitilgan yozuvlar Xiva xonligi davrining siyosiy va madaniy hayotini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, ushbu yozuvlarni alohida obidalar misolida o'rganish tarixiy voqelikni yanada aniqlashtirish imkonini beradi. Ichan qal'aning muhim me'moriy unsurlaridan biri hisoblangan Ata Darvoza nafaqat mudofaa inshooti, balki ramziy va mafkuraviy ahamiyatga ega obida sifatida ham e'tiborga loyiqdir. Darvoza devorlarida saqlanib qolgan epigrafik yozuvlar qurilish davri, homiy shaxslar hamda ularning siyosiy-diniy qarashlarini aks ettiradi. Biroq Ata Darvoza epigrafik yozuvlari hozirga qadar alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur maqolada Xiva Ichan qal'adagi Ata Darvoza epigrafik yozuvi tarixiy manba sifatida tahlil qilinib, uning asl matni ilmiy muomalaga kiritiladi hamda o'zbek va ingliz tillaridagi tarjimalari taqdim etiladi.

Tadqiqot natijalari Xiva epigrafikasini o'rganishda manbaviy bazani kengaytirish bilan birga, Markaziy Osiyo me'moriy yodgorliklaridagi epigrafik yozuvlarni tarixiy tadqiqotlarda qo'llash imkoniyatlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi:

Ota Darvoza Darvozasi Ichan-Qal'aning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shaharning asosiy kirish qismi hisoblanadi. Darvozaning o'ng tomonida Muhammad Amin Xon madrasasi (1855), chap tomonida esa Xon Ark saroyi (Kunya-ark) joylashgan. Darvozada to'rtta xona mavjud bo'lib, ularda bojxona va sarrafxona (valyuta ayirboshlash shoxobchasi) joylashgan. 1975-yilda darvoza Xiva usta restavratorelari tomonidan asl qiyofasiga qaytarilgan. Darvozaning uzunligi 10 metr va kengligi 4 metr. [B.A. Bulatova, I.I. Notkin *Arxitektura i Pamyatniki Xivy*]

Darvozalar shaharning asosiy kirish eshiklari bo'lib, ko'plab tarixiy voqealarni boshidan kechirgan, jumladan: 1866 yil oxirida "yovmut avboshlari hujum etib kelib, Xivaq atrofini choptilar. Xon hazratlarining buyrug'i bilan askarlar

to'planib, yovmutga qarshi kurash boshlandi, shahardan ham bir miqdor piyoda qoratayoq bo'lib chiqdi." [O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Va Sport Ishlari Vazirligi Xiva

“Ichon - Qal’a” Davlat Muzey - Qo‘riqxonasi Xorazm Ma‘mun Akademiyasi Komiljon Xudoyberganov 23-bet]

Metodologiya:

Ushbu tadqiqot deskriptiv-tahliliy va qiyosiy metodlar asosida olib borildi. Tadqiqot obekti sifatida Xiva Dishan qal’a hududidagi kasalxon va telegraf binolaridagi epigrafik yozuvlar tanlandi, predmeti esa ushbu yozuvlarning ingliz tiliga tarjimai va leksik-semantik xususiyatlaridir. Tadqiqot jarayonida epigrafik yozuvlarning asl nusxalari, ularning o‘zbek tilidagi tarjimai va ingliz tilidagi ekvivalenti solishtirildi. Shu orqali tarjimada yuzaga keladigan semantik siljishlar, tarixiy va madaniy realiyalarga bog‘liq tarjima muammolari aniqlandi. Bundan tashqari, tadqiqot lingvokulturologik yondashuv asosida olib borildi: har bir epigrafik matn tarjimada nafaqat so‘zlarning leksik ma‘nosi, balki ularning madaniy va tarixiy konteksti ham hisobga olindi. Tadqiqot materiallari sifatida arxiv ma‘lumotlari, epigrafik yozuvlarning fotosuratlarini, shuningdek, Xiva tarixi va epigrafik tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Epigrafik yozuvlarni to‘plash va fotosuratlash;
2. Matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish;
3. Ingliz tiliga tarjima qilish;
4. Qurulish tarix
5. Natijalarni umumlashtirish va xulosa chiqarish.

Natijada, tadqiqot tarix va epigrafik matnlarni ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan madaniy muammolarni aniqlash va ularni tahlil qilish imkonini berdi.

Asosiy qism:

Ota darvoza Ichon-qalaning g‘arbiy eshigi bulib, Bugun kunda shaharning asosiy bosh darvozasi sanaladi. Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, bu darvoza Eltuzarxon tomonidan (1804-1806yy) pishgan g‘ishtdan qurilgan ekan. Xonlik qulay darvoza ichida sarrofxona (pul ayirboshlash), bozhonalar bulgan.

Uning nomi darvoza oldidagi hovuz nomidan olingan bo‘lib, hovuz o‘z navbatida shu erdagi Shermuhammad ota masjidining koshida bulgani uchun shermuhammad ota nomi bilan atalgan. shunday Shermuhammad ota nomi yakunilib, hovuz va darvoza Ota darvoza va Ota hovuz nomi bilan atala boslangan.

Xiva shahrining ichkari qal’asida yashagan o‘lkashunos va tarixchi Bobozhon Safarov (Safarzoda)ning aitishiga qaraganda, shahar halqining suv bilan taminlash maqsadida shaharning uch tomonida uchta hovuz qazilgan. Bu hovuzlar Polvon hovuzi, Bogcha hovuzi va Ota hovuzlaridir. Bu hovuzlarning yonidagi darvozalar shu hovuzlarning nomlari bilan atalgandir.

Lekin, qala va uning to‘rt darvozasi aslida hovuzlardan ancha oldin bino qilingan, darvozalarning eski asl nomlari bizga nomalum bo‘lib kelmoqda.

O‘rta Osiyoga arablar kirib kelganidan va islom dini bu hududda targala boshlagandan keyin o‘sha davigacha amalda go‘llanib kelingan gadimgi turkiy yozuviar siqi chiganigan va bu yerda arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek yozuvi golgan.

Davlat muassasalaridagi barcha yozishmalar, shuningdek odamlar o‘rtasidagi yozma munosabatlar arab alifosiga ko‘chinigan edi

Shuning uchun 89 asrlardan boshiab bu hududdag epigrafik yodgorliklar ham mana shu yozuvda bajarla boshlagan. Lekin bu yodgorliklardagi bitiklaming yozuvi arabiy bo'lgani bilan, tili asosan turkiy, bazan forsiy, goho esa arabcha edi. Xussan Xiva ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi hududdagi epigrafik yozuvlar juda ko'p uchraydi. Assosan madrasalarda peshtoqida, minoralarda, machtlarda va darvozalarda bor. Ichan qala misolida oladigan bo'lsak bu Ata darvozani aytsak bo'ladi. Ata darvozaning o'ng va chap tabakalaridagi turtburchak kitob ichida Nasx va Nastalik xatida burtma xolida bitiklar bitilgan. Ikkala tabaka turtburchak kitobalari ichidagi aloxida doiralar ichiga xam yozuvlar bitilgan bulib, ulardagi uzunchoq xarflar orkali bir guzal xandasaviy shakilda naksh xosil kilingan. Kolgan yozuvlar turtburchaklarning atrof va tag kismlaridadir.

Matini asil:

سنه .خاندی سدیرتی صلاح ب ست .أحد الله یا ق یوم یا حی یا الله یا .الرحیم الرحمن الله بسم
۱۲۶۶ - ۱۲۶۷ .

Tarjimasi o'zbek tilda. Mexribon va raxmli Allox nomi bilan [boshlayman]. Ey Allox, ey xamisha Tirik zot, ey Abadiy zot, ey Yagona zot.

Kurolning mustaxkamligi - xonning shon-sharafi 1266-1267 [1849-1850]'

Ingliz tilinda tarjimasi. In the Name of Allah, the Most Beneficent, the Most Merciful. Oh, Allah, the Ever Living, the One and Only!

The strength of wyeapons is the Khan's glory. 1266-1267 [1849-1850].



Matini asli:

درگاه این ه پشه پ دولت پ ادک شاده
الله الا اله لان اشهد ب حق

Tarjimasi o'zbek tilida.

Alloxdan boshka ilox yukligi xakki-xurmati
Xamisha ochik bulsin davlat poydorligi ila bu dargox.

Ingliz tilinda tarjimasi.

May this gate always open by sovereignty
In evidencye that there is no god but Allah.

O'ng tabakaning turburchak ichidagi doprasida sule xatida Kuroni karimning «Ixlos» surasi bitilgan.



Matining asil:

أَحَدٌ كَفُؤًا لَهُ يَكُنْ وَلَمْ يُؤَلَدْ وَلَمْ يَلِدْ لَمْ الصَّمَدُ اللَّهُ أَحَدُ اللَّهُ هُوَ قُلْ


Tarjimasi o‘zbek tilida:

(Ey, Muxammad) aytin: “U Allox yagonadir. Allox Samad /extiijisiz, kojatbaror/dir. U tumagan va tuchilmagan xam. Shuningdek, Uning xech bir tengi yuk”.

Ingiliz tili tarjimasi:

Say [Oh Muhammad]: "He is Allah, [the] One. Allah-us-Samad [The Self-Sufficiyent Master, Whom all creatures neyed, He neither eats nor drinks]. He begets not, nor was He begotten; And there is none co-equal or comparable unto Him."

Darvozaniig chap tabakasiga va zulfiga sils xatida arab tilida «Kalimayi tayyiba» yozilgan.



Matining asil:

اللَّهُ ر سُولِ مُحَمَّدِ اللَّهِ إِلَّا إِلَهَ لَا


Tarjimasi o‘zbek tilida:

Alloxdan boshka ilox yuk va Muxammad - Alloxning rasuli.

Ingliz tilinda tarjimasini:

There is no god but Allah and Muhammad is the messenger of Allah.

Darvozaxona ichki eshiklarining o'ng tomoniga nas - talik xatida fors-tojik va eski uzbek tillarida matn yozilgan. Yezuv biroz kupolrok bitilgan. Uchinchi va turtinchi katorlarida batzi xarflar shikastlangan. Matnda xatolar uchraydi. Bazan uzbekcha matnga urinsiz ravishda forsiy suz va izofalar kushilgan. Shu sabab ayrim suzlar va jumlar tula ukilmadi va tarjima kilinmadi.



Matning asil

درگاه این هایشه بدولت بادک شاده
 الله الا اله لان اشهد بحق
 اله لطف ز (?) نه ند شد
 الله ع بد بن نياز محمد او سد تا کار

Tarjimasini o'zbek tilida

Alloxdan boshka ilox yukligi xakki-xurmati
 Xamisha ochik bulsin davlat poydorligi ila bu dargox.
 Alloxning lutf-marxamati bilan
 Ishni tugatdi Usta Muxammadniyoz ibi Abdullox

Ingliz tilinda tarjimasini

May this gate always open by (the pious sovereignty)
 In evidencye that there is no god but Allah Master Muhammad-Niyaz, the son of ' Abdallah Has
 performed the work by the gracye of Allah

Natijalar va muhokama:

Tadqiqot natijasida shuni ko'rsatdiki Xiva shaxrining ichan qal'a g'arbiy tomoning Ota Darvozaning qurulish tarix va epigrafik yozuvlarni o'zbek va ingliz tilinda tarjima qilishda bir qator lingvistik va madaniy muammolar yuzaga keldi.

Shuningdek, o'zbek tiliga so'z va gaplarni tarjima qilganda biroz muammolar bo'ldi bu tabiiy holat chunki arab va forst tilari yozilganda va o'qiganda o'ngdan chapga qarab o'qiladi. Tarjima jaroyonida fikirlash kengroq va batafsil ifodalash zarur.

Ingliz tilida esa aksincha tesakirisi yani qisqa va londa bo'lishi kerak. Tarix matnlarini tarjima qilishda kontekst va madaniy va diniy omillar chuqur va muhim ro'l o'ynaydi.

Tadqiqot jaroyonida shuni aytish keraki, tarixiy matnlarni yoki sherlarni tarjima qilish jaroyonida faqat tarjima emas balki tarixni ham yaxshi bilish kerak.

Xulosa:

Yurtimizdagi ko‘plab tarix joylar bor. Shahrimizdagi tarix va topilgan epigrafik yozuvlarni o‘rganish jaroyida juda ko‘plab tarix va madaniyatni ko‘rsatadi.

Misol uchun Xorazm Viloyatidagi Xiva shahriing Ichan qal‘asining g‘aribiy qismida joylashgan Ota Darvoza tarix va epigrafik matnini tarjima qilganda juda ko‘plab malumotlar bor ekan.

Tarjima qilish jaroyonida shuni bildimki leksik va semantik ancha farq qildi chunki leksikda bir so‘zni tarjoma qilgan bo‘lsam semantikda esa uning mano jihatini o‘rgandik.

Bu orqali kelajak avold uchun to‘g‘ri ma‘mosini saqlab qolgan xolatda berishga harakat qildik. Yani yosh tarjimonlarimiz sayoxlarga tarjima qilganda qiynalmasdan tarjima qilishlari va mansini to‘liq yetkazib berishlari uchun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.A. Bulatova, I.I. Notkin *Архитектурные Памятники Хивы*
2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Va Sport Ishlari Vazirligi Xiva “Ichon - Qal’a” Davlat Muzei - Qo‘riqxonasi Xorazm Ma‘mun Akademiyasi Komiljon Xudoyberganov 23-bet
3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Va Sport Ishlari Vazirligi Xiva “Ichon - Qal’a” Davlat Muzei - Qo‘riqxonasi Xorazm Ma‘mun Akademiyasi Komiljon Xudoyberganov 23-25betlari.
4. Firdavsmonand shahar. D. Bobojonov 2015
5. O‘zbekiston obidalari bitiklari K. Xudoyberganov 2015
6. O‘zbekiston obidalari bitiklari B. Bobojonov 2022